

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 1 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 9, НОМЕР 1

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 9, ISSUE 1



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2026-1>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Ўзбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шнукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масъул қотиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

Мўминова Маъсума Ғолиб қизи
ф.ф.д., (PhD) вб. доцент

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистан)

Якуб Умар оғли
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джўраев Маматкул
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Джеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Балтабаев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Дўстмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Сиддикова Ирода
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Шнукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистан)

Муминова Масума Ғолиб қизи
PhD и.о. доцент

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarchodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammadov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

Mo'minova Ma'suma
PhD Acting Docent
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Tursunova Parvina Mamurjonovna NUTQIY HUSHMUOMALALIK IFODALANISHIDA YOLG‘ON ISHLATILISHINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI (ISPAN TILI MATERIALLARI ASOSIDA).....	5
2. Умурова Гузал Хотамовна ПСИХОЛОГИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТВОРЧЕСТВА - ЗНАЧИМОСТЬ КОМПЛЕКСНОГО ПОДХОДА К ИЗУЧЕНИЮ И ОРГАНИЗАЦИИ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	10
3. Даминова Фазода Ирисовна ТЕОРЕТИКО-ИСТОРИЧЕСКИЕ И МИРОВОЗЗРЕНЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДРЕВНЕРУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.....	15
4. Рахматова Гулнора Турсиновна ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ: РЕЗУЛЬТАТЫ КОРПУСНОГО АНАЛИЗА.....	22
5. Усманова Салиха Юлдашевна ИЗ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ ВВОДНО-МОДАЛЬНЫХ ЕДИНИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ.....	32
6. Ибаев Анвар Журабекович ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ОККАЗИОНАЛЬНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И ЕЁ ТИПЫ.....	41
7. Т.А.Эргашева СОЛИҚ РЕЗИДЕНТИ ТУШУНЧАСИНИНГ ХАЛҚАРО ҲУЖЖАТЛАРДАГИ ПРАГМАЛИНГВИСТИК ТАҲЛИЛИ.....	47
8. Nomozov Abdiaziz Mustaqimovich ARAB VA INGLIZ MUROJAAT SHAKLLARINING QIYOSIY-PRAGMATIK TAHLILI: ZAMONAVIY KOMMUNIKATSIYA KONTEKSTIDA.....	52
9. Davlatova Hulkaroy Uktamovna RAQAMLI MUHITDA BOLALIK: ZAMONAVIY SHAROITDA TIL O‘ZLASHTIRISH OMILLARI.....	58
10. Abdunazarova Maftuna Fakhriddinovna PRAGMATIC AND FUNCTIONAL ANALYSIS OF SPEECH ACTS IN DIALOGIC DISCOURSE.....	64
11. Nomozov Abdiaziz Mustaqimovich ARAB VA INGLIZ MUROJAAT SHAKLLARINING QIYOSIY-PRAGMATIK TAHLILI: ZAMONAVIY KOMMUNIKATSIYA KONTEKSTIDA.....	71
12. Nilufar Abduraxmonova, Abdullayeva Shakhnoza Rakhimjon qizi ONTOLOGICAL MODELING INFORMATION TECHNOLOGY TERMS IN UZBEK.....	77
13. Aybibi ISKANDAROVA O‘ZBEK KORPUSSHUNOSLIGIDA PARALLEL KORPUSGA OID TADQIQOTLAR VA ULARNING LINGVISTIK AHAMIYATI.....	87
14. Abdullaeva Sanobar Bakhrillaevna THEORETICAL STUDY OF PHRASEOLOGY IN THE ANTHROPOCENTRIC PARADIGM.....	93
15. Воҳидов Абдувахоб САМАРҚАНД ТОЖИКЛАРИ ШЕВАСИ ФРАЗЕОЛОГИК ЖУФТ ТАРКИБЛАРИ ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР.....	99
16. Усманова Салиха Юлдашевна, Мирзаева Шахло Ризаевна ИЗУЧЕНИЕ ГЛАГОЛОВ, СПОСОБНЫХ ПРИНИМАТЬ ПРЕДИКАТНЫЙ АКТАНТ.....	104

17. Zaynutdinova Durdona Asatovna ARTIFICIAL INTELLIGENCE AS A TOOL FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNERS (Evidence from EFL Settings in the Republic of Uzbekistan).....	109
18. Atabayeva Zarnigor Bakhran kizi THE DEMONIZATION OF DORIAN GRAY: AESTHETICISM, MORAL DECLINE, AND THE DUALITY OF HUMAN NATURE IN VICTORIAN LITERATURE.....	118
19. Ochilova Noila Farmonovna O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA “OTA”KONSEPTINING TALQINI.....	122
20. Abduraxmonova Sohiba Aktam qizi BOLALAR NUTQINING O‘RGANILISHI (ESKI NAZARIYALARDAN ZAMONAVIY YONDASHUVLARGACHA).....	126
21. Sharipov Raufjon Elmurod o‘g‘li AKADEMIK G‘ANIJON ABDURAHMONOVNING “TARIXIY SINTAKSIS” ASARIDA QO‘SHMA GAPLAR EVOLYUTSIYASI.....	130
22. Said-Axmedova Shoxista Nuritdinovna AGENTLIK TUSHUNCHASINING LINGVISTIK TADQIQI.....	135
23. Nilufar Abduraxmonova, Nilufar Botirova SIYOSIY SOHAGA DOIR TARJIMA LUG‘ATINI SHAKLLANTIRISHDA PARALLEL MATNLARNING KONTEKSTUAL TAHLILI.....	141
24. N.M.Shamuradova INGLIZ TILIDA SO‘Z ODOBINI IFODALOVCHI MAQOLLARNING DISKURSIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI.....	148
25. Sevinch Sherzodovna Xolmirzayeva ITALYAN TILIDAGI KO‘P MA‘NOLI SO‘ZLARNING TARJIMADA MA‘NO FARQLANISHI.....	152
26. Башарова Лейла РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ И ВОСПРИЯТИЕ АНТРОПОМОРФНЫХ ЖИВОТНЫХ В ДЕТСКИХ КНИГАХ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОЗНАНИЕ И РАЗВИТИЕ РЕБЕНКА.....	158
27. Ivanova Alena Yadmagieвна TACTILE GESTURES IN CHINESE EVERYDAY COMMUNICATION: TYPOLOGY, FUNCTIONS, CULTURAL MARKEDNESS.....	165
28. Ozoda Tojiboyeva, Xasanova Shaxodat Xamza qizi O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA HADISLARDAN FOYDALANISH AN‘ANASI.....	175
29. Asqar Abdullaev SYNTACTIC STRUCTURES: ESSENCE, TYPES, AND STUDIES IN GLOBAL LINGUISTICS.....	180
30. Nuraliyeva Ozoda Narbayevna FOLKLOR MATNLARIDA IQLIM HODISALARINING RAMZIY BADIYATI.....	185
31. Сабина Авазжоновна Махмудова ОСОБЕННОСТИ РЕПРЕЗЕНТАЦИИ КОНЦЕПТА «ВОЙНА» В РОМАНЕ Р. ОЛДИНГТОНА «СМЕРТЬ ГЕРОЯ».....	193
32. Nasrullayev Javohirxon Ravshanxonovich RAQAMLI HUQUQIY MULOQOTDA YURIDIK TERMINLARNING IJTIMOY-LISONIY MOSLASHUVI.....	200

**Ozoda Tojiboyeva**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek filologiyasi fakultetining O'zbek adabiyoti tarixi kafedrasini o'qituvchisi**Xasanova Shaxodat Xamza qizi**

ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich magistranti

O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA HADISLARDAN FOYDALANISH AN'ANASI<https://doi.org/10.5281/zenodo.20815025>

Anotatsiya: Mazkur maqolada arba'in tuzish an'anasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda "arba'in" so'zining lug'aviy va istilohiy ma'nolari keltirilgan. Arba'in janrining islomiy adabiyot va ma'naviy-ma'rifiy tafakkur taraqqiyotidagi o'rni yoritilib, uning hadis ilmi bilan uzviy bog'liqligi ochib beriladi. Shuningdek, mumtoz Sharq adabiyotida hadis va hadis mazmunlaridan foydalanish an'ansi ayniqsa, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy hamda Muhammad Fuzuliy asarlari misolida hadislarning badiiy talqini va arba'in yaratishdagi o'ziga xos yondashuvlar o'rganiladi. Ularning asarlarida hadislarning ma'naviy-axloqiy mazmuni ifodalashdagi o'rni, badiiy mahorati tahlil etiladi. Bundan tashqari, Usmonli turk olimlari Mahmed Emre va Hasan Husnu Ardam tadqiqotlari asosida arba'in turkumiga mansub asarlar soni, ularning mualliflari hamda janrning turli davrlardagi taraqqiyot xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltiriladi. Tadqiqot natijalari arba'in an'anasining Sharq adabiyoti va islomiy ma'rifat tarixidagi muhim o'rnini yoritishga, shuningdek, mumtoz adabiy merosni yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, tadqiqotda zamonaviy davrda yaratilgan arba'in namunalari berilgan. Alisher Navoiyning "Arba'in" asari hamda Abdulla Oripov yaratgan zamonaviy arba'in namunasi qiyosiy tahlil qilinib, har ikki asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari arba'in janrining tarixiy taraqqiyoti, uning mumtoz va zamonaviy adabiyotdagi davomiyligi hamda ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: islom dini, ummat, musulmon, janr, termin, Sharq, mumtoz, arba'in, hadis, an'ana, turk.

Ozoda Tojiboyeva,

PhD in Philological Sciences Lecturer,

Department of the History of Uzbek Literature, Faculty of Uzbek Philology,
Alisher Navoiy Tashkent State University of Uzbek Language and Literature,
Tashkent, Uzbekistan**Shahodat Khamza qizi Khasanova**Second-Year Master's Student, Faculty of Uzbek Language and Literature,
Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

Abstract: This article presents the formation and development stages of the tradition of composing arba'in, as well as the lexical and terminological meanings of the word "arba'in". The

role of the arba'in genre in the development of Islamic literature and spiritual and enlightening thought is highlighted, and its inextricable connection with the science of hadith is revealed. Also, the tradition of using hadith and hadith content in classical Eastern literature, especially the artistic interpretation of hadiths and unique approaches to creating arba'in are studied using the works of Abdurahman Jami, Alisher Navoi, and Muhammad Fuzuli. The role of hadiths in expressing spiritual and moral content in their works, their artistic skills, are analyzed. In addition, based on the research of Ottoman Turkish scholars Mahmed Emre and Hasan Husnu Ardam, information is provided about the number of works belonging to the arba'in series, their authors, and the features of the development of the genre in different periods. The results of the study serve to shed light on the important place of the Arba'in tradition in the history of Eastern literature and Islamic enlightenment, as well as to provide a deeper understanding of the classical literary heritage. In addition, the study provides examples of Arba'in created in the modern era. Alisher Navoi's work "Arba'in" and the modern example of Arba'in created by Abdulla Oripov are analyzed comparatively, and the ideological and artistic features of both works are highlighted. The results of the study serve to provide a deeper understanding of the historical development of the Arba'in genre, its continuity in classical and modern literature, and its spiritual and educational significance.

Keywords: Islam, ummah, Muslim, genre, term, East, classic, arba'in, hadith, tradition, Turkish.

Озода Тожибоева

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам,
преподаватель кафедры истории узбекской литературы факультета узбекской филологии
Ташкентского государственного университета узбекского языка и
литературы имени Алишера Навои.

Хасанова Шаходат Хамза кизи

Магистрант второго года обучения факультета узбекского языка и литературы Ташкентского
государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои.

Аннотация: В данной статье представлены этапы формирования и развития традиции создания арбаина, а также лексическое и терминологическое значение слова «арбаин». Подчеркивается роль жанра арбаин в развитии исламской литературы и духовно-просветительской мысли, а также раскрывается его неразрывная связь с наукой хадисов. Кроме того, на примере работ Абдурахмана Джамии, Алишера Навои и Мухаммада Фузули изучается традиция использования хадисов и их содержание в классической восточной литературе, особенно художественная интерпретация хадисов и уникальные подходы к созданию арбаина. Анализируется роль хадисов в выражении духовного и нравственного содержания в их произведениях, их художественное мастерство. Кроме того, на основе исследований османских турецких ученых Махмеда Эмре и Хасана Хусну Ардама представлена информация о количестве произведений, относящихся к серии арбаин, их авторах и особенностях развития жанра в разные периоды. Результаты исследования помогают пролить свет на важное место традиции арбаина в истории восточной литературы и исламского просвещения, а также способствуют более глубокому пониманию классического литературного наследия. Кроме того, исследование приводит примеры арбаина, созданного в современную эпоху. Произведение Алишера Навои «Арбаин» и современный пример арбаина, созданный Абдуллой Ориповым, анализируются сравнительно, и выделяются идеологические и художественные особенности обоих произведений. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию исторического развития жанра арбаина, его преемственности в классической и современной литературе, а также его духовного и воспитательного значения.

Ключевые слова: ислам, умма, мусульманин, жанр, термин, Восток, классический, арбаин, хадис, традиция, турецкий.

Islom dini arkonlarini keng targ'ib va tashviq qilish maqsadida VIII asr oxiri-IX asrdan boshlangan Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) hadislari asosida arba'in tuzish an'anasi XII asrlarga kelib musulmon xalqlari mumtoz adabiyotida "Arba'in" yoki "Chihil hadis" nomi ostida qirqta hadisni bir joyga jamlab, ularning ma'nosini xalqqa tushuntirib berish, sharh yozish alohida adabiy janrga aylana boshladi. Shu davrdan boshlab arba'in tuzish an'anasi alohida badiylik kategoriyasi sifatida badiiy adabiyot rivojida muhim rol o'ynadi. Adabiy janr sifatida arab adabiyotida vujudga kelgan arba'inlar islom dinini targ'ib qilish maqsadida yaratilgan bo'lsa, to'liq ma'nodagi badiiy asar va adabiy janr sifatida Sharq she'riyatida mukammal shakllandi. Bu aynan Fuzuliy, Jomiy va Navoiy ijodida o'z aksini topdi.

Arba'in "qirq" so'zi bilan bog'liq holda arab xalqlari animistik tasavvurlari asosida vujudga kelgan. Arab ijtimoiy voqeligida "arba'in" termini bevosita islom dini bilan bog'liq ravishda ayni diniy amaliyot sifatida shakllangan bo'lib, taqvo egalari Alloh uyida qirq kecha-kunduz yolg'izlikda toat-ibodat bilan shug'ullanishni odat qilishgan. Keyinchalik bu odat yangi yo'nalish olib Payg'ambarimiz (s.a.v) hadislarini yodlashga e'tibor qaratilgan.

Payg'ambarimiz hadislaridan 40 tasini tanlab olib, uning badiiy talqinini yaratish an'anasi zahirida quyidagi hadis yotadi: "Ummatimdan kimki din amri bilan qirq hadisni yod olsa, oxirat kunida men unga shafotchi bo'laman, Alloh uni allomalar va faqihlar jamoasiga qo'shadi".

Sharq mumtoz adabiyotida arba'inchilik an'anasi diniy-ma'rifiy adabiyotning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shakllangan bo'lib, ushbu an'ananing rivojida Abdurahmon Jomiy hamda Alisher Navoiy kabi yirik mutafakkirlarning "Arba'in" nomli asarlari alohida o'rin egallaydi. Biroq olib borilgan ilmiy tadqiqotlar mazkur adabiy hodisa faqat ayrim mashhur ijodkorlar faoliyati bilan chegaralanmasdan, Sharq adabiy-madaniy muhitida keng yoyilgan va ko'p asrlik an'ana sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

Usmonli turk olimi Mahmed Emre o'zining "Qirq mavzuda qirq hadis" asari muqaddimasida arab va turkiy tillarda arba'in yaratgan yigirma ikki nafar muallif haqida ma'lumot keltiradi. Tadqiqotchi mualliflarni tasniflash jarayonida turk ijodkorlari tomonidan yaratilgan arba'inlarni til va shakl jihatidan guruhlariga ajratib, ayrim asarlar turkiy tilda nazm shaklida, boshqalari esa arab tilida tuzilganini qayd etadi.

Mahmed Emre tomonidan hijriy II-X asrlar (milodiy VIII-XVI asrlar, taxminan 736-1567-yillar oralig'i) davomida yashab ijod qilgan arba'in mualliflari haqida muayyan ma'lumotlar berilgan bo'lsada, uning tuzgan ro'yxatida Abdurahmon Jomiy hamda Alisher Navoiy nomlarining uchramasligi ilmiy jihatdan e'tiborga molik masala hisoblanadi.

Usmonli tadqiqotchisi Hasan Husnu Ardam esa "Ilohiy hadislar" kitobiga yozgan "Hadisda arba'in" nomli maqolasida arba'in turkumiga mansub asarlar mualliflari soni qariyb to'qsonga yaqin ekanini ta'kidlab, ushbu an'ana vakillari safida Abdurahmon Jomiy ham qayd etadi. Bu hol arba'inchilik an'anasi Sharq adabiyotida keng tarqalgan ilmiy-adabiy jarayon bo'lganini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, arba'in asarlari mavzu doirasi jihatidan rang-barang bo'lib, ayrimlari e'tiqodiy qarashlar, axloqiy tamoyillar, ota-ona haqlari kabi muayyan masalalarga bag'ishlangan bo'lsa, boshqalari turli mazmundagi hadislarni jamlagan holda yaratilgan. Shu bilan birga mazkur asarlarning kompozitsion qurilishi ham bir xil emas: ular nasriy, nazmiy hamda nazm va nasr uyg'unligidagi shakllarda ta'lif etilganligi ilmiy manbalarda qayd etiladi. Imom Yahyo bin Sharaf an-Navaviy Arba'inida hadislar va ularning tarjimalari nasriy keltirilgan bo'lsa, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning "Arba'in"ida nasriy muqaddima, har bir hadisning asl arabcha matnidan so'ng forscha va turkcha shu hadis ma'nosi singdirilgan nazmiy qit'alar berilgan. Aksariyat hadislar sahih va mashhur bo'lib, ularning 11 tasi Quzoyning "Musnad ush-shihob", 9 tasi Imom Buxoriyning "Sahihi Buxoriy" qolganlari mashhur muhaddislarning hadislaridan olingan. Asarning umumiy hajmi esa 108 baytni tashkil etadi. Asarning kirish va yakuniy qismlari 5 baytni tashkil etadi. Arba'in xafifi musaddasi maxbuni mahzuf vaznida yozilgan. Ta'kidlash joizki, asl arabcha matnning keltirilishi intertekstuallikni yuzaga keltirganini bilishimiz mumkin. Bundan tashqari, olimlarimizning arba'in tarjimalari borasidagi so'nggi izlanishlari samarasi o'laroq vujudga kelgan ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, "Jomiy qalamiga tegishli "Arba'in hadis"ni buyuk ozarbayjon shoiri Fuzuliy (1494-1556) ham ozarbayjon tiliga tarjima qilgan ekan". "Al-majolisu bil-amonati" (Majlislarda

eshitganing – omonat) hadisi Abdurahmon Jomiy hazratlari ijodida shunday she'riy shakl va ifodaga ega:

Ey shuda mahrami majolis
Rozi har majlis amonati tust.
Makun ifshoi rozi majlisi kas,
Z-onki ifshoi on xiyonati tust.

Yuqoridagi hadis Alisher Navoiy hazratlarining tarjimasida shunday keltiriladi:

Qaysi majlisdakim eshitsang so'z,
Bilgil ul so'z sanga amonatdur.
Gar ani o'zga yerda naql etsang,
Ul amonatg'a bu xiyonatdur.

Xuddi shu hadis Muhammad Fuzuliy tarjimasida quyidagicha keltiriladi:

Ej ki, h r m chlis ichr  m hr ms n,
S nd  m chlis s zu  m n tdir.
Yetm  ifshaji-razi-h r m chlis
Ki, bu sijr t b jyk x jan tdir.

Ko'rib turganimizdek, arba'in tarjimalarida uyg'unlik mavjud.

Alisher Navoiy "Arba'in"i ustoz Abdurahmon Jomiy arba'inining turkcha she'riy tarjimasida bo'lib, "Asar an'anaviy hamd va na't bilan boshlanadi. Muqaddima – "Sababi ta'lif manzuma"da Navoiy ustoz Abdurahmon Jomiy sahih hadislardan 40 tasini tanlab olib, forsiy tilda "Arba'in" yaratganini, lekin turkiy kitobxon bu chashmadan bebahra ekanligini aytib, Jomiyning ruxsati bilan shu 40 hadisni turkiy tilga tarjima qilganligini yozadi. Biroq, shoir asarni aynan tarjima qilmay unga yangi hadislarini ham kiritib mukammallashtirgan.

Hadisning asli: al-ilmu lo yubxalu minhu", ya'ni: ilmni to'hfa qilishda (o'rgatishda) baxillik qilma. Abdurahmon Jomiyning sharhi:

Ey, garonmoya mardi donishmand,
Ki turo ilmi din buvad ma'lum.
Musta'idro az on mashav mone',
Mustahiqro az on makun mahrum.
Alisher Navoiyning tarjima-sharhi:
Ey xiradmand olimeki senga,
Ilmi din ro'ziy ayladi sone'.
Kishi o'rgansa, qilmag'il mahrum,
Yoki naf olsa, bo'lmag'il mone'.

Keltirilgan misolda arab, fors va turkiy tillar qatnashmoqda. Arab tilidagi asl matn nihoyatda ixcham bo'lib, to'rt so'zdan tashkil topgan. Jomiy va Navoiy misralari esa asliyatning so'zma-so'z tarjimasida bo'lmay, balki badiiyat qonuniyati asosida amalga oshirilgan to'rt misralik qit'a talablariga muvofiq sharhlardir, ularda qofiya bor, vazn bor. Jomiy va Navoiy sharh-qit'alarining birinchi baytida olim-donishmandga murojaat qilish bor. Bu murojaat asliyatda yo'q, demak ular sharhlovchilarning ilovasi. Qit'alarining ikkinchi baytida esa hadisning mazmuni qamrab olinib, ular asosiy maqsadni ifodalovchi yakuniy baytga aylanganlar. Shunday qilib, bu sharhlar hadis ruhidagi axloqiy mavzudan bahs yurituvchi mustaqil qit'alardir deb tahlil qilgan.

Muborak hadislardan birida: "Al-kalimatut tayyibatu sadaqatun", ya'ni "Shirin so'z sadaqadir", deyilgan. Hazrat Navoiy mazkur hadis mazmunini she'rda betakror talqin etgan:

Yaxshi so'z birla hojat ahlin so'r,
Bermasang yaxshi to'madin nafaqa.
Ne uchunkim Rasul qavli bilan –
Yaxshi so'z bordur uylakim sadaqa.

Hojat ahli ikki xil – zohiran moddiy jihatdan ko'makka muhtoj, ma'naviy tarafdin esa turmushning qattiq zarbasiga uchragan, ko'ngli o'ksik mazmunini ifodalaydi. Bu o'rinda faqir, ehtiyojmand kishi nazarda tutilgan. "To'ma" esa oziq, taom, luqma, bir osham ovqat ma'nolarini anglatadi. Buyuk shoir hadis mazmunini she'rda ifodalashdan oldin o'quvchi ongi va qalbini uni

qabul qilishga tayyorlaydi. Ya'ni dastlabki ikki misrada: “Mabodo hojat ahliga taom bera olmasang, yaxshi so‘z bilan ahvolini so‘ragin”, deya o‘git beradi. Keyingi ikki satrda esa Rasuli akram sallolohu alayhi vasallam hadisini keltirish orqali ushbu nasihatining ta’sir kuchini oshiradi: Rasululloh alayhissalom: “Yaxshi so‘z bamisoli sadaqadir” deganini eslatib, odamlarni ezgulikka chaqiradi.

Filologiya fanlari nomzodi Bobonazar Murtazoev “Ozarbayjon adabiyoti tarixi” asarida Fuzuliy tomonidan tarjima qilingan qit’alarni Jomiy hamda Navoiy qit’alari bilan qiyosiy tahlil qiladi. Olim Jomiyning “Arba’in hadis” asariga Navoiy va Fuzuliy tomonidan amalga oshirilgan ijodiy tarjimalarni o‘rganar ekan, har ikki shoir tarjimalarida hadis mazmuni bilan qit’alar o‘rtasidagi badiiy va mazmuniy uyg‘unlik yuqori darajada saqlanganini qayd etadi. Shuningdek, tadqiqotchi ulug‘ adiblarning boshqa qit’alarida ham g‘oyaviy va poetik mushtaraklik kuchli ekanini ta’kidlaydi. Biroq ayrim holatlarda Fuzuliy tarjimasidagi ba’zi qit’alar Jomiy va Navoiy namunalariga nisbatan ma’no hamda badiiy talqin jihatidan muayyan farqlarga ega ekanligi ham alohida ko‘rsatib o‘tiladi. Asar xalqni jaholatdan asrash, uning ilmi va marifatli bo‘lishga chorlash maqsadida yozilgan. Avvalo, asarda pand-nasihati mavzusidagi qirqta hadis tanlanib, ular mahorat bilan ozarbayjon tilida talqin qilingan.

Mustaqillik davridan keyin ham ko‘plab shoirlarimiz bu an’anani davom ettirishdi. Jumladan, Abdulla Oripovning “Haj daftari – Hikmat sadolari”, Jamol Kamolning “Qirq hadis ilhomi”, Shukur Qurbonning “Hikmatlar anjumani”, Sirojiddin Sayyidning “Yaxshilik eskirmagay. Qirqhadis”, Anvar Hojiahmadning “Jannat kaliti”, A’zam O‘ktamning “Ikki dunyo saodati” Nodira Afoqovanning “Muhammad (s.a.v.) dedilar... (Arba’in turkumi)” hamda Orif Hojining “Qirqhadis va bir rivoyat” kabi turkumlarini kiritish mumkin. Mazkur asarlarning ayrimlari an’anaviy arba’in shakliga to‘liq mos kelmasa-da, hadis mazmunini poetik ifodalashi bilan ahamiyat kasb etadi.

Mumtoz adabiyot namunalaridan bo‘lgan Alisher Navoiy “Arba’in” asarini zamonaviy “arba’in” ya’ni Abdulla Oripov “Haj daftari – Hikmat sadolari” asari bilan qiyoslaymiz. Alisher Navoiyning “Arba’in”ida nasriy muqaddima, har bir hadisning asl arabcha matnidan so‘ng forscha va turkcha nazmiy qit’alar keltirilgan. Ushbu asar inson axloq-odobiga doir 40 hadisning ma’nosi singdirilgan. Navoiy arba’inini to‘rtlik qit’a shaklida yozilgan bo‘lsa, Abdulla Oripov bu yo‘nalishga yangicha yondashuv olib kirgan. Ya’ni shoir an’anaviy shakldan qisman chekinib, she’rlarni to‘rtlik shaklida emas, balki sakkiz bandli she’r mazmunini yoritgan. Shu sakkiz band doirasida esa bir nechta hadis mazmunini yoritadi. Hazrat Navoiy Jomiyning asarini turkiy tilga tarjima qilgan bo‘lsa, zamondosh shoirimiz o‘z asarini makkai mukarramada yozganini takidlaydi. Ushbu shoirning arba’inida arabcha matn keltirilmay, faqat she’rning o‘zi berilgan. Asardan iymon-e’tiqod, yaxshilikka chorlov, yomonlikdan qaytarishga oid mavzular o‘rin olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Пулатова М. Шарқ мумтоз адабиётида «Арбаъин» ёзиш анъаналари (Жомий, Навоий ва Фузудий асарлари мисолида). Филол. фан. бўйича фал. док. (PhD) диссертация автореферати. – Тошкент, 2020. – 13 б.
2. Жўшон, М.А. 2012. “Қирқ ҳадис” анъанаси. Буюклар туҳфаси (таржимон А.Ҳайитов). Тошкент: Muharrir.
3. Dehqonov. A. Arba’innavislik an’anasi va Muhayyir adabiy faoliyati. Oltin bitiglar, 2020. – B. 22.
4. Raimova S. “Mumtoz “Arba’in”larning zamonaviy she’riyatga ta’siri va intertekstuallik”. Modern science and research, 2024. – B. 4.
5. Raimova S. “Mumtoz “Arba’in”larning zamonaviy she’riyatga ta’siri va intertekstuallik”. Modern science and research, 2024. – B. 3.
6. Mamatqulova N. Alisher Navoiyning “Arba’in” asariga qisqacha sharh – Scientific progress, 2021. – B. 9.
7. Jabborov N. Uyquqlik baxtning uyg‘onishi.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА
INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000